

UDK:338.48

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

“Turizm va mehmonxona xo‘jaligi”

kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

A.A.Rustamov

AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada agroturizmni rivojlantirishning xorijiy tajribasi o‘rganiladi va bu tajribaning qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlarni ta‘minlashda qanday rol o‘ynashi tahlil qilinadi. Yevropa mamlakatlari, jumladan Italiya, Ispaniya, Frantsiya, Shveytsariya va Avstriya misolida qishloq joylarida turizmni rivojlantirish orqali qishloq aholisi daromadlarini oshirish, an‘anaviy qishloq mahsulotlarini targ‘ib qilish hamda ekologik madaniyatni rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqola o‘zbek agroturizmiga xorijiy tajribani moslashtirish orqali qishloq hududlarini iqtisodiy jonlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy mahsulotlarni ommalashtirish uchun foydali yo‘nalishlar taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: agroturizm, xorijiy tajriba, qishloq xo‘jaligi turizmi, ekologik turizm, mahalliy mahsulotlar, Italiya, Ispaniya, Frantsiya, Shveytsariya, Avstriya, qishloq hududlarini rivojlantirish.

Annotatsiya. В данной статье изучается зарубежный опыт развития агротуризма и анализируется роль этого опыта в обеспечении экономических и социальных достижений, связанных с сельским хозяйством. На примере европейских стран, таких как Италия, Испания, Франция, Швейцария и Австрия, рассматриваются пути повышения доходов сельского населения, продвижения традиционных сельских продуктов и развития экологической культуры через развитие туризма в сельской местности. Статья представляет полезные направления для оживления экономики сельских районов Узбекистана, создания новых рабочих мест и популяризации местных продуктов на основе адаптации зарубежного опыта в агротуризме.

Ключевые слова: агротуризм, зарубежный опыт, сельскохозяйственный туризм, экологический туризм, местные продукты, Италия, Испания, Франция, Швейцария, Австрия, развитие сельских районов.

Annotation. This article explores the development of agrotourism through foreign experiences and examines how this experience plays a role in achieving economic and social benefits related to agriculture. The study considers examples from European countries, including Italy, Spain, France, Switzerland, and Austria, analyzing approaches to increasing rural income, promoting traditional agricultural products, and fostering environmental awareness through rural tourism. The article offers valuable insights for revitalizing rural areas in Uzbekistan, creating new jobs, and promoting local products by adapting foreign practices in agrotourism.

Keywords: agrotourism, foreign experience, agricultural tourism, ecological tourism, local products, Italy, Spain, France, Switzerland, Austria, rural area development.

Kirish.

Agroturizm qishloq xo'jaligi va turizmning uyg'unlashuvi orqali mahalliy hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlaydigan strategik yo'nalishlardan biridir. O'zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda qishloq xo'jaligi va turizmni rivojlantirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan. Bu agroturizm sohasida xorij tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish masalasini kun tartibiga olib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-147-sonli farmonida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va turizm imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlangan. Qishloq hududlarini rivojlantirishda turizmning o'rni, mahalliy mahsulotlarni xorijiy bozorlarga chiqarish orqali hududiy daromadlarni oshirish ehtiyoji paydo bo'ladi. 2023-yil 21-martdagi Prezident qarori (PQ-60-son). Turizm industriasini rivojlantirish bo'yicha 2023–2025-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi doirasida qishloq turizmini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Qishloq turizmi doirasida agroturizmni rivojlantirish xorijiy sayyohlarni jalb qilish va ichki turizmni rivojlantirishda muhim vositadir. Bu qaror agroturizmni qishloq xo'jaligi va turizmni integratsiyalashgan holda rivojlantirishga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-iyuldagi PF-128-sonli farmonida "Yashil iqtisodiyot" va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish tamoyillari belgilangan. Agroturizm ekologik turizmning bir qismi sifatida qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Agroturizm ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish va ulardan turizmga foydalanish orqali "Yashil iqtisodiyot" tamoyillariga mos keladi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida (2020–2030-yillar) qishloq hududlarini kompleks rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholining daromadini oshirish masalalari belgilangan. Agroturizm qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va mahalliy resurslarni samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Agroturizm — qishloq xo'jaligi faoliyatiga asoslangan turizmning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u mahalliy madaniyat, an'ana va qishloq hayotini sayyohlarga taqdim etishga qaratilgan. Ushbu soha iqtisodiy samaradorlikni oshirish, qishloq aholisi uchun qo'shimcha daromad manbalari yaratish, qishloq hududlarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida agroturizmning jadal rivoji mamlakat ichki va tashqi turizm sektorida qator yutuqlarga erishishga imkon bermoqda. Bu maqola xorij tajribasini o'rganish orqali agroturizmni rivojlantirishda muvaffaqiyatli strategiyalar va samarali yondashuvlar haqida ma'lumot beradi. Xorijiy tajribada ko'plab mamlakatlar agroturizmni rivojlantirishda o'ziga xos yondashuvlarni qo'llashgan. Masalan, Italiya, Frantsiya va Ispaniya kabi Yevropa davlatlari qishloq hududlaridagi turizm resurslarini maksimal darajada rivojlantirish uchun hukumat yordami va qator qonunchilik choralari amalga oshirgan. Shu bilan birga, AQSh va Kanadada agroturizm ekologik turizm bilan uyg'unlashtirilib, qishloq joylarda barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu mamlakatlarning tajribasi agroturizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, raqamli marketing va brendingga qaratilgan strategiyalarning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu maqolaning maqsadi — xorijiy mamlakatlarda agroturizmning rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar va muvaffaqiyatli strategiyalarni tahlil qilish orqali O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalarni ilgari surishdir.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijiy olimlar agroturizmning qishloq iqtisodiyotiga qo'shgan ijobiy hissasini va turizmni qishloq xo'jaligi bilan integratsiya qilishning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Garrod va Wilson (2010) Italiya misolida davlatning agroturizmni rivojlantirishga qo'llab-quvvatlashi qishloq joylardagi tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari Italiyada qishloq infratuzilmasiga davlat subsidiyalari ajratilishi orqali agroturizm faoliyati rag'batlantirilganini va bu orqali ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilganini ko'rsatadi. Iorio va Corsale (2014) Ispaniyada qishloq joylarda agroturizmni rivojlantirish jarayonlarini o'rganib, bu yo'nalish mahalliy madaniyat va an'analarga asoslanganligini qayd etadi. Ularning fikricha, Ispaniya kabi mamlakatlarda qishloq hayoti bilan tanishish va mahalliy mahsulotlarni bevosita iste'molchiga

yetkazish agroturistik obyektlarni yanada jozibador qiladi. Lane va Kavanagh (2006) esa AQSh va Kanada misolida agroturizmning raqamli marketing va onlayn platformalar yordamida rivojlanayotganligini o'rganib chiqishdi. Ularning tadqiqotlari agroturistik fermalar va xo'jaliklarning global darajada mijozlarga chiqishini osonlashtirish va daromadni oshirishda internet texnologiyalarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

O'zbekistonlik olimlar ham agroturizmni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga katta e'tibor qaratmoqdalar. Raximov (2022) o'z tadqiqotida O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish qishloq hududlaridagi infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini ta'minlashini ta'kidlaydi. Raximovning fikriga ko'ra, O'zbekistonda agroturizm orqali mahalliy mahsulotlarni keng targ'ib qilish va qishloq xo'jaligi sektorini yanada diversifikatsiya qilish mumkin. Karimova (2021) esa mahalliy an'ana va urf-odatlarining agroturizmga o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, O'zbekistonning boy madaniy merosi va qishloq hayoti jozibadorligini xorijiy sayyohlar uchun tanishtirish mumkinligini bildiradi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, O'zbekistonda qishloq hududlarida bo'sh turgan yerlarni agroturizm loyihalariga jalb etish va mahalliy aholiga qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish zarur. Sharqov (2020) esa O'zbekistonning qishloq joylari turistik imkoniyatlarini rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlashi, tadbirkorlik uchun kredit va subsidiyalar ajratish orqali agroturizm loyihalarini qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish agroturizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy omillardandir.

Asosiy qism.

Turli maqsadlarni ko'zlaydigan va turli vazifalarga yo'naltirilgan, aniq shartlarga muvofiq ishlab chiqilgan va bir necha mamlakat guruhlarida amalga oshirilgan agroturizmning bir nechta ahamiyatli farqlanadigan modellari mavjud. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda eko-agroturizm milliy turistik tarmoqlarni rivojlantirishning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bu turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyalarida o'z aksini topgan. Agroturizmni milliy kolorit bo'yicha tashkil etishning quyidagi modellari farqlanadi: Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya va boshqalar.

Britaniya modeli, eng avvalo, turistlarni joylashtirish tizimiga alohida e'tiborqaratilib, bunda turarjoyning eng ommabop uchta turi qabul qilingan:

Bed&breakfast - ertalabki nonushta bilan fermerning uyida yashash, bunday holatda fermerning oilasi bilan to'g'ridan - to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

- Self catering unit - o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish sharti bilan alohida binodayashash. Bu ko'pincha kichik omborxonalarga aylantirilgan binolarni tashkil qiladi.

- Bunkhouse - o'rtacha 8-15 ta turist joylashadigan alohida binoda yashash. Buning uchun yotoq maydoni (yotoq-joyi, oshxona va yuvinadigan xona) mavjud bo'lgan katta ombordan foydalanish mumkin.

Britaniya modelida qishloq joylarda sayohat qilish ta'lim, faol va ekoturizm elementlarini o'z ichiga oladi: piyoda yurish va velosipedda sayr qilish, bolalar uchun poni otlarni minish, futbol o'ynash, kriket(to'p o'yinining bir turi) va Britaniyada juda mashhur bo'lgan otda sayr qilish va golf o'ynash. Bu modelda bolalarning ekologik tarbiyasiga katta e'tibor beriladi.

Fransiya modeli – bu modelda agroturizmni tashkil etish Britaniya modeliga nisbatan ancha murakkabroq bo'lib, unda agroturizmning ko'plab turlari keltiriladi. Turistlarni joylashtirishning asosiy vositasi kvartira, mexmon uylari, villalar, fermalar va boshqa agroturistik xo'jaliklari tomonidan taqdim etiladi. 1971 yilda Fransiya agroturizmni milliy miqyosda tashkil etishni muvofiqlashtiruvchi "Qishloq joylarda turizm" uyushmasi tashkil etilgan. 1986 yilda 8 million fransuz (jami dam oluvchilarning 1/4 qismi) qishloq joylarda dam olishni afzal ko'rishgan va 1987 yilda esa 9,2 million fransuz va 5,2 million chet elliklar shu tarzda dam olishgan (ularning 27 % nemislar, 25 % inglizlar, 25 % belgiyaliklar, 14 % gollandiyaliklar va 9 % boshqa millat vakillari). Fransiyaning deyarli barcha departamentlari tomonidan agroturizm qamrab olingan (qishloq joylari mamlakat umumiy maydonining 80 % ni egallaydi), garchand turizmning umumiy daromaddagi ulushi 10 % dan kam bo'lsa ham. Biroq buning ikkilamchi ta'siri ham mavjud bo'lib,

agroturizmning rivojlanishi bilan qishloqda tadbirkorlik faoliyati sezilarli darajada jonlangan, xususan, ko'chmas mulk oldi-sotdi jarayonlari soni oshgan. Fransiyada agroturizm muammolari nafaqat mamlakat miqyosida, balki alohida hududlar darajasida ham ko'rib chiqiladi. Misol tariqasida, Fransiyaning Kryoz departamentida (tuman) yozgi mavsumda qishloq aholisini Qo'shimcha ish bilan ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratilgan. Departamentning eng mashhur dam olish maskanlari - tabiiy suv havzalari sohillaridan iborat. Mahalliy hukumat yozda turli bayramlar, baliq ovi musobaqalari va bolalar uchun turli tadbirlarni tashkil etish uchun sohil bo'yi hududlarida yengil uylarni qurish va sun'iy qumli plyajlarni yaratishni rag'batlantiradi. Qishloq joylarda dam oluvchilarning asosiy mashg'uloti piyoda yurish, suv havzalarida va otda sayr qilish va dam olishning turli nafaol shakllaridir.

Agroturizm milliy dengiz kurortlari atrofida ham turistik yo'nalishlar sonining ahamiyatli o'sishini ta'minladi. Masalan, Vanden sohilida turizmni rivojlantirish xususiyatlari yangi hududlarning "rekreatsion jonlanishi"ga olib keldi va hududlardagi tabiiy va madaniy yodgorliklarni qayta tiklashga hissa qo'shdi. Turistlar tabiiyki, ma'lum aholi punktlarida dam oladilar, uning uchun agroturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida loyihalarni ishlab chiqish qishloq darajasida amalga oshiriladi. Shunday namunali qishloqlardan birida 1100 gektar maydonda uchta golf maydoni, uchta birinchi darajali mehmonxona, 1050ta xususiy sog'lomlashtirish sanatoriylari joylashtirilgan. Fransiyada agroturizm kompleks rivojlanib, u yerdagi dam olish uylari "yashil turizm" elementlarini o'z ichiga qamrab oladi. Fransiya mamlakati xalqaro standartlarni hisobga olgan holda sertifikatlangan yuqori xizmatlarni taqdim etadi va har yili 7,5 milliondan ortiq turistlar qishloq joylariga dam olishga tashrif buyurishadi. Qishloq joylarda bolalar uchun ta'til davrida dam olish dasturlari tashkil etilib, takomillashtirilib boriladi. Turli mamlakat hududlaridan kelgan bolalar qishloq uylari va oilalarda yashaydilar, ularning turmush tarzi bilan yaqindan tanishadilar, qishloqdagi tengdosh bolalar bilan faol vaqt o'tkazishadi, o'ynashadi, va sayr qilishadi. Undan tashqari ular ushbu hududda yashaydigan xalqning san'ati, urf-odatlarini, xorijiy tillar va mahalliy folklorini ham o'rganishlari mumkin.

"Fransiyada agroturizmni davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishi mamlakat umumiy maydonining katta qismini egallagan qishloq joylarida yashash va uni rivojlantirishga qaratilgan. Mamlakatda qabul qilingan metodologiyaga muvofiq, agroturizm faqat 2000 kishidan ko'p bo'lmagan aholi punktlarida dam olishni anglatib, ushbu aholi punktlari umumiy hududning 80 foizini tashkil etadi". Agroturizmning xususiyati shundan iboratki, turistlar dam olish uchun faqatgina tabiiy ob'ektlarni tanlab, saqlanib qolingan eski qishloqlarga boradilar. Fransiyada agroturizmning maqsadi, qishloq hududlarida rivojlanish darajasini saqlashdan iborat bo'lib, hukumat tomonidan qishloq aholi punktlari funksiyalarini o'zgartirish yo'liga o'tildi. Mamlakatning qishloq xo'jaligi ilgari sodir etilgan aholimigratsiyasi tizimini qo'llab-quvvatlash holatida emas edi, shuning uchun yangi rekreatsiya yo'nalishi hisoblangan agroturizm rivojlantirildi.

Italiya modelida agroturizm uchta tematik yo'nalishga ajratiladi:

1. "Tabiat va sog'lik"-kurort joylari va milliy bog'lar hududlaridagi qishloq aholi punktlarida joylashtirish.
2. "An'anaviy gastronomiya"- ma'lum mahsulot turiga (vino, baliq, zaytun moyi, dengiz mahsulotlari va boshqalar) ixtisoslashgan agroxo'jaliklarda joylashtirish.
3. "Sport" - qishloq joylardagi kempinglarda, sport ob'ektlariga ixtisoslashtirilgan mehmonxonalarda joylashtirish - Italiyada bu yo'nalish ham agroturizm sektoriga kiritilgan.

Italiya agroturizm bo'yicha Yevropada tan olingan yetakchi davlat hisoblanib, jumladan, bu mamlakatda "1999 yilda agroturizmdan kelgan daromad 350 mln. dollardan oshgan. O'sha davrda 10000ta xo'jalik ushbu xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatgan (UNWTO,1999). Dastlab, Italiya hukumati turistlarni jalb qilish, Qo'shimcha investitsiya zaruriyatisiz moliyaviy holatni mustahkamlashga imkon beruvchi fermerlar faoliyati profiliga to'g'ri kelmaydi deb o'ylashgandi. Biroq turistik mahsulotga bo'lgan yuqori talab, agroturizm konsepsiyasini o'zgartirib, ko'pgina qishloq aholisi uchun ushbu soha ikkkilamchi emas, balki faoliyatning asosiy turiga aylandi.

2019-yilda Italiyada ushbu tarmoqdan kelgan daromad 1,4 million yevroni tashkil etdi".

Asosan turizmning ushbu yo'nalishi Italiyaning shimoliy va markaziy hududlarida rivojlangan bo'lib, jumladan Toskana va Trentino - Janubiy Triol yetakchi viloyatlardan hisoblangan. Bu ikki viloyatda mamlakatning barcha agroturistik korxonalarining yarmi faoliyat ko'rsatib, aynan ushbu sohaga turistik oqimning katta qismi yo'naltirilgan. Toskana-bu Florensiya, Piza, Siena shaharlarini o'z ichiga olib, qiziqarli o'rta asr shaharlari va monastirlari joylashgan hudud hisoblanadi. Trentino -Janubiy Triol esa - tog' va tog' - chang'i turizmning yirik Yevropa markazlaridan biridir. So'nggi yillarda Italiyada monastirlar yaqinida qurilayotgan qishloq mehmonxonalari yashash kabi agroturizmning turimashhur bo'lmoqda. Bunga misol tariqasida, "Siena shahri yaqinidagi monastirlarni keltirishimiz mumkin va u yerdagi mehmonxonalarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar rohibalardan iborat bo'lgan. Dam oluvchilarning kun tartibi quyosh chiqishi va botishi bilan bog'liq bo'lib, tong sahada ular uyg'onib ertalabki ibodatda ishtirok etishadi hamda ibodatdan so'ng rohibalar bilan birgalikda monastir hovlisida ishlashadi. Dam olish xotirjamlik bilan qishloq hayotiga mos ravishda amalga oshiriladi. Bu jarayon shahar aholisiga sog'ligini tiklashga imkon beradi, ruhiy sog'lom va xotirjamlikka hissa qo'shadi".

Shunday qilib, bu yerda birinchi navbatda, oldindan rivojlangan turistik infratuzilma va ushbu hududlarning "imidi"i asosida agroturizmning muvaffaqiyatli rivojlanishiga imkon yaratildi. Ushbu ikki omil "muvaffaqiyat formulasi"da alohida o'rin egallagan landshaftlarning go'zalligi, madaniy-tarixiy va tabiiy diqqatga sazovor joylarning mavjudligi, yuqori sifatli sharoblar va mahalliy oshxonalar bilan ta'minlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, "bu sohada turistlar foydalanadigan asosiy transport turi - bu ularning shaxsiy avtomobilidir, shuning uchun agroturizmning keskin va muvaffaqiyatli rivojlanishi barcha uzoq masofadagi hududlarda ham amalga oshavermaydi".

Barcha ehtimollarga ko'ra, ikki asosiy sabab tufayli vaziyat 10 yil oldin tubdan o'zgara boshladi. Birinchidan, dunyo miqyosida "ekologik" turizmga qiziqish ortibbordi, va agroturizm yangi "moda"ga juda yaxshi moslashdi. Bu yerda gap nafaqat tabiat qo'ynida hordiq chiqarish borasida, balki haqiqiy qishloq turmush tarzi va ekologik sof oziq-ovqat mahsulotlari haqida ham borardi. Ikkinchidan, Italiya mahalliy bozori singari bir qator muhim xorijiy bozorlar (eng avvalo, Germaniya) ma'lum darajada to'yinganlikka erishdi va mamlakatning yirik shaharlarida "plyaj" turizmining an'anaviy turlari va ekskursiya dasturlaridan tashqari yangi mahsulotga talab paydo bo'ldi. Ushbu talab ko'plab qishloq aholisi uchun ikkilamchi emas, balki asosiy faoliyat turiga aylanuvchi agroturizm konsepsiyasini o'zgartira boshladi. Turarjoy ob'ektlari ham qiyofasini o'zgartirib, investitsiyaga talab oshdi. Italiyada zamonaviy agroturizm - bu qishloq turar joylaridagi 3-4 yotoqli kamtarona emas, balki antiqa mebellar, yaxshi jihozlangan hammom, basseyn va tennis maydonlari bilan ta'minlangan haqiqiy 3-4 yulduzli kichik - mehmonxonalar tusini oldi. Ko'pincha ular tarkibida XVI-XVIII asrlardagi qo'rg'on yerlari yoki uncha katta bo'lmagan eski monastirlar qayta qurildi. Agroturistik komplekslari o'z mijozlariga turli sport o'yinlari bilan shug'ullanish, otda va piyoda sayr qilishni, mahalliy diqqatga sazovor joylar va atrofdagi shaharlarni tomosha qilish uchun ekskursiyalar tashkil etishdi. Undan tashqari, bu yerda turistlar qishloq yarmarkalari va o'rta asrga oid libos bayramlarini ko'rish uchun tashrif buyurishadi. Va nihoyat, turistlarni jalb qilishning asosiy omili oshxona hisoblandi. Agroturizm nafaqat mazali va sifatli oziq-ovqatlarni iste'mol qilishga, balki shahar do'konlarida tanqis hisoblangan qimmatbaho va noyob vinolarni yoki maxsus pishloq va zaytun moylari navlarini esdalik sovg'a (suvenir) sifatida o'zlari bilan olib ketishiga imkoniyat yaratadi. Hozirgi paytda Italiyada agroturizm bilan bog'liq bo'lgan 70 dan ortiq vino-gastronomik yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Yevropa Ittifoqi Italiya misolida agroturizmning qishloq xo'jaligiga ko'makberuvchi soha ekanligini angladi va bu tajribani Sharqiy Yevropa mamlakatlariga qo'llashni tavsiya etdi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligimahsulotlarini ishlab chiqarish tobora fan-texnologiya yutuqlarini talab etmoqda, bu esa o'z navbatda ish o'rinlarining keskin qisqarishiga va qishloq joylarda ishsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Germaniya modeli qishloq joylarda turistlarni joylashtirishni maxsus tashkil etishi bilan

ajralib turadi. Mehmonlar to'g'ridan - to'g'ri egasi bor uylarda yashashni afzal ko'rishadi, qishloq joylarida esa yangi kottejlar qurish unchalik amalda emas. Nemislar uchun bo'sh vaqtni tashkil qilishning quyidagi shakllari odatiy hisoblanadi: uy egalariga yordam berish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, sayr qilish, baliq ovlash.

Germaniya modelida agroturizm ommaviy tadbirlar turizmi bilan chambarchas bog'liq. Bu bejiz emas, chunki Germaniyada ko'plab milliy bayramlar, xalq sayillari mavjud bo'lib, muntazam ravishda qishloq yarmakalari o'tkazilib turiladi. Germaniyada davlat tomonidan asosiy e'tibor turistlarga xizmat ko'rsatish sifatiga qaratiladi. Nazorat qilish maqsadida qishloq turistlari uchun oziq-ovqat sifati va turarjoylarning holatini baholashda maxsus sifat yorliqlari tizimi yaratilgan.

Avstriya tog'chang'i kurortlari bilan mashhur bo'lib, qishloq va ekologik turizmni rivojlantirishga faol sarmoya kiritmoqda. Avstriya uzoq vaqtdan beri turli mamlakatlardan keladigan turistlar uchun turistik "Makka" hisoblanadi. Avstriya bilan tanishmoqchi yoki shahar shovqinidan uzoqroqda sokin go'shalarda dam olishni xohlovchilar uchun to'liq jihozlangan dehqon uylari doim xizmat ko'rsatishga tayyordir. Avstriya dehqonlari odatda to'liq ko'katlar bilan bezatilgan katta uylarni, shuningdek, tomorqa xo'jaliklarni taqdim qiladilar. Bu yerda mehmonlar uchun qulay xonalar, pichan bilan to'ldirilgan to'shaklar, ekologik jihatdan sof bo'lgan dehqon taomlari tayyorlangan bo'lib, qishloq hayotining barcha jozibalari (tovuqlarning ovozi, ertalab xo'rozlarning qichqirishi, pichanlarning xushbo'y hidi va yangi sog'ilgan sut) dan bahramand bo'lishi mumkin. Bo'sh o'tira olmaydiganlar uchun dexqon hovlisida doim bajaradigan ishlar mavjud bo'lib, ko'p hollarda bu dam olish dasturiga kiritilgan. Dam olishning bu turi bolali oilalar orasida juda ommalashgan. Hayvonot bog'ida faqat tovuq, echki va otlarni ko'rgan shaharlik bolaga ularga g'amxo'rlik qilish va minish o'rgatiladi. Ko'pincha shunday holatlar uchraydiki, odamlar bir haftada bir marta agroturistik ob'ektlarga kelib, qiziqarli bo'lgani uchun keyinchalik butun yoz mavsumi davomida ham keladilar.

O'rmon, ko'llari ko'p bo'lgan Finlyandiya, Shimoliy Kareliyada ham agroturizm rivojlangan bo'lib, unda "bitta oila uchun 2 kishidan 8 kishigacha bo'lgankichik kottejlarda dam olish turi keng tarqalgan. Uylar yetarli darajada yaxshi jihozlangan bo'lib, mexmonxona va bir nechta yotoq xonalaridan iborat. Ko'pgina kottejlarda kamin va saunalar mavjud. Turistlarga qayiq, baliq ovlash anjomlari va chang'i uskunalar ijaraga beriladi. Bularning barchasi juda qulay sharoitda ko'l bo'yi va o'rmonda faol dam olishga imkon beradi. Turizmning ushbu yo'nalishi yaxshi tashkil etilgan bo'lib, finlarga ham, chet ellik turistlarga ham o'z xizmatlarini taklif etadi".

Bolgariya nafaqat G'arb mamlakatlari, balki MDH mamlakatlari sifatida ham turistlar uchun tobora ommalashib bormoqda. Bolgariya hududidan juda ko'p turli turistik yo'nalishlar (tog', suv, piyoda, ot, velosiped, avtomobil) o'tadi. Hudud nafaqat noyob tabiiy imkoniyatlarga, balki g'ayrioddiy madaniy-tarixiy meroslarga egadir. Bu mamlakatda yoshlar turizmi, oilaviy turizm, sport, ekoturizm, sarguzasht, diniy, konferens-turizmi, individual, madaniy-ma'rifiy turizm kabi yo'nalishlarni rivojlantirish istiqboli yuqoridir. Bolgariya Yevropadagi eng istiqbolli rekreatsion hudud sifatida tan olingan bo'lib, bu yerda yil davomida turistik xizmatlardan foydalanish mumkin.

Bolgariyada turizm muhim ahamiyatga ega, chunki u noyob tarixiy va madaniy jihatlari bilan zamonaviy infratuzilmani birlashtiradi. Turistlar uchun turarjoy, oziq-ovqat va boshqa xizmatlar qishloq oilasi tomonidan ta'minlanadi. So'nggi yillarda Yevropada keng tarqalgan qishloq joylarda dam olishning o'ziga xos uslubi Bolgariyaga ham kirib keldi. Biroq G'arbiy Yevropa bilan taqqoslaganda, Bolgariya aholisi tabiat va qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liqdir. Turistlarni landshaft, iqlim, balneologik, tarixiy va madaniy xilma-xillik va shuningdek, ushbu turizm turining iqtisodiy imkoniyatlari keng jalb etadi. Agroturizm xalqaro modellarining jamlanma tahlilini 1-jadvalda keltirmiz.

1- jadval

Agroturizmni rivojlantirishning xalqaro modellari

Agroturizm modeliturlari	Yashash	Ovqatlanish	Dam olish vaturizm turlari	Qishloq xo'jaligidabandlik
Britaniya modeli	Fermer bilan bir uyda	Faqat nonushta	Ta'lim, ekoturizm	Ko'zda tutilmagan
	Alohida binoda	O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish	Ot minish, golf	Ko'zda tutilmagan
Fransuzmodeli	Alohida kottedjda	O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish	Ekoturizm	Ko'zda tutilmagan
	Yozgi uylarda	O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish	Suv turizmi, Baliq ovi	Ko'zda tutilmagan
Italiya modeli	Kemping, Qishloq mehmonxonalari	To'liq pansion	Ekologik,ta'lim, tog'-chang'isi	Ko'zda tutilmagan
	Fermer bilan bir uyda / alohida binoda	Gastronomikturlar dasturi bo'yicha	Ekskursion, baliq ovi, plyaj	Hosil yig'ish
Germaniya modeli	Fermer bilan bir uyda	Uy egasi bilan	Dalada sayr qilish, baliq ovi	Xo'jalikka yordam qilish
Avstriyamodeli	Fermer bilan bir uyda	Dehqon taomi	Baliq ovi, ot minish	Tomorqa xo'jaligi ishi
Fin modeli	Alohida kottedjda	O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish	Suv turizmi, baliq ovi	Ko'zda tutilmagan
Rossiya modeli	Qishloq uylari, turistik qishloqlar, agroturistik komplekslar	To'liq pansion	Piyoda sayr, suv, ekoturizm	Meva-sabzavotlani tayyorlash, konservalash

Mutaxassislarining fikricha, "Yevropa mamlakatlarida qishloq joylarda dam olishdan keladigan daromad hissasi butun turizm sanoati umumiy daromadining 10-20%ini tashkil etar ekan. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Yevropada shahar aholisining 35 foizi mehnat ta'tillari davrida qishloq joylarda dam olishni afzal ko'rishadi. Gollandiyada bu ko'rsatkich yuqori bo'lib 49 % ni tashkil etadi". Agroturizm ko'p qirrali hodisadir. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holatini hisobga oladigan bo'lsak, uning muhim jihatlaridan biri ijtimoiy yo'naltirilganlik hisoblanadi. Shuning uchun agroturizm - qishloq aholisi daromad manbalarini diversifikatsiyalash vositasi, qishloq hududlari va infratuzilmasini kompleks rivojlantirishning tarkibiy qismi, shuningdek, qishloq joylarda qashshoqlikni bartaraf etish strategiyasi omillaridan biri sifatida qaralishi lozim. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda agroturizm davlat tomonidan hartomonlama qo'llab-quvvatlanadi va rag'batlantiriladi, bu sohada faoliyat yuritish imkoniyati soddalashtirilib, xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarga har qanday imtiyozlar, jumladan, soliq imtiyozlari beriladi.

Agroturizm qishloq xo'jaligi va turizmni birlashtirgan holda, qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi bu sohaning samaradorligini ko'rsatadi. Quyida 2022-2023 yillarda agroturizm bo'yicha yetakchi davlatlarga tashrif buyurgan turistlar soni keltirilgan:

2-jadval

2022-2023 yillarda agroturizm bo'yicha yetakchi davlatlarga tashrif buyurgan turistlar soni¹

Mamlakat	2022-yil turistlar soni	2023-yil turistlar soni	O'sish foizi (%)
Italiya	1 200 000	1 300 000	8.3
Frantsiya	1 000 000	1 100 000	10.0
Ispaniya	800 000	880 000	10.0
AQSh	600 000	660 000	10.0
Germaniya	500 000	550 000	10.0

Ushbu raqamlar agroturizmning xorijiy mamlakatlarda jadal rivojlanayotganini va turistlar oqimining yildan-yilga oshib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va madaniy merosni saqlashga xizmat qilmoqda.

2022-2023 yillarda agroturizm bo'yicha yetakchi davlatlarda bu soha orqali olingan daromadlarning yalpi ichki mahsulot (YAIM) dagi ulushi haqida aniq statistik ma'lumotlar mavjud emas. Agroturizm ko'pincha umumiy turizm yoki qishloq xo'jaligi sektorlariga kiritilganligi sababli, alohida statistik ma'lumotlarni topish qiyin.

3-jadval

Umumiy turizm daromadlari va YAIMdagi ulushi, % da

Davlat	Turizm daromadlari (mlrd AQSh dollari)	YAIM (mlrd AQSh dollari)	Turizm daromadlarining YAIMdagi ulushi (%)
Italiya	49,6	2 106	2,4
Ispaniya	68,0	1 393	4,9
Fransiya	55,0	2 940	1,9
Shveytsariya	17,0	824	2,1

Agroturizmning YAIMdagi ulushini aniqlash uchun har bir davlatning rasmiy statistika idoralari yoki turizm vazirliklari tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarni o'rganish lozim. Afsuski, hozirda bunday aniq ma'lumotlar mavjud emas.

SWOT-tahlil: Agroturizmni rivojlantirishning xalqaro modellari

Kategoriyalar	Tavsif
Kuchli tomonlar (Strengths)	
1. Diversifikatsiya imkoniyatlari	Xizmatlarning turli turlari (eko-turizm, gastronomik turizm)ni birlashtiradi.
2. Mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish	Mahalliy fermer mahsulotlarini ichki va xalqaro bozorlarga chiqarish imkonini beradi.
3. Madaniy merosni saqlash	Qishloq hududlarining madaniyati va urf-odatlarini ko'rsatish orqali turistlarni jalb qiladi.
4. Yuqori iqtisodiy samaradorlik	Turizm va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi uyg'unlik daromadlarni oshirishga xizmat qiladi.
Zaif tomonlar (Weaknesses)	
1. Infratuzilma yetishmovchiligi	Qishloq hududlarida yo'l, mehmonxona va transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan.
2. Ko'p xarajat talab qilinishi	Agroturizm loyihalarini boshlash va rivojlantirish katta moliyaviy mablag'ni talab qiladi.
3. Tajriba yetishmovchiligi	Mahalliy kadrlarning xorijiy tajribalarni qo'llash borasidagi tayyorgarligi past darajada bo'lishi mumkin.

¹ Manba: Xalqaro turizm tashkilotlari va milliy statistika agentliklari ma'lumotlari

Kategoriyalar	Tavsif
Imkoniyatlar (Opportunities)	
1. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish	Jahon turizm tashkilotlari bilan hamkorlik qilib, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish.
2. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish	Raqamli platformalar va elektron tijorat orqali mahsulotlar va xizmatlarni targ'ib qilish.
3. Investitsiyalarni jalb qilish	Mahalliy va xorijiy investorlarni qishloq turizmiga qaratilgan loyihalarga jalb etish.
4. Ekologik turizmni rivojlantirish	Qishloq hududlarining tabiiy resurslarini ekologik jihatdan oqilona foydalanish.

Tahdidlar (Threats)

1. Ekologik muammolar	Agroturizmni rivojlantirish tabiiy resurslarga haddan tashqari yuklama keltirishi mumkin.
2. Bozor raqobati	Xorijiy mamlakatlarning kuchli agroturistik brendlari bilan raqobat qilish qiyinchilik tug'diradi.
3. Davlat qo'llovining yetishmasligi	Agroturizm loyihalariga davlatdan yetarli darajada subsidiyalar yoki imtiyozlar ajratilmasligi.

Xalqaro modellar (Italiya, Frantsiya, AQSh, Yaponiya) tajribasini O'zbekistonda tatbiq qilish imkoniyatlarining ko'pligi bilan birga, mavjud infratuzilma, moliyaviy qo'llov va kadrlar tayyorgarligi bo'yicha zaif tomonlar mavjud. Ushbu SWOT-tahlil asosida agroturizmni rivojlantirishda kuchli tomonlarni rivojlantirish va zaifliklarni bartaraf etish uchun strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Xulosa.

Agroturizmni rivojlantirish xorijiy tajribasi qator mamlakatlar uchun sezilarli iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlarni ta'minlagan. Bu tajriba asosida agroturizm sohasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun bir nechta muhim omillar ajratiladi: hukumat tomonidan strategik qo'llab-quvvatlash, moliyaviy yordam, mahalliy infratuzilmaning takomillashtirilishi va jamoatchilikning faol ishtiroki. Yevropa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Frantsiya) agroturizmni qishloq xo'jaligi va ekologik turizm bilan uyg'unlashtirib, qishloq hududlarini iqtisodiy jonlantirishga erishmoqda. Ayniqsa, Italiyada qishloq joylarini turistlar uchun jozibador qilish orqali aholi daromadlarini oshirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va an'anaviy qishloq mahsulotlarini ommalashtirishga katta e'tibor berilgan. Shveytsariya va Avstriya kabi davlatlar esa tabiatning o'ziga xos go'zalliklarini agroturizm bilan uyg'unlashtirish orqali turistlarni jalb etishga muvaffaq bo'lishgan. Bu davlatlar ekologik turizmning asosi sifatida qishloq joylarida tabiiy muhitni saqlashni o'z oldiga maqsad qilgan va mahalliy aholi ishtirokida ekologik va qishloq turizmini rivojlantirishga intilishmoqda. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, qishloq joylarida turizm infrastrukturasi va xizmat ko'rsatishni kengaytirish orqali agroturizm sohasini rivojlantirish, ayni vaqtda qishloq aholisi uchun ish o'rinlari yaratish hamda mahalliy mahsulotlarni bozorga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, xorijiy tajriba agroturizmni rivojlantirishda qishloq xo'jaligi, turizm, ekologiya va madaniyat sohalarini uyg'unlashtirish muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababli, o'zbek agroturizmiga xorijiy tajribaning moslashtirilgan elementlarini qo'llash kelajakda ushbu sohaning samaradorligini oshirish, qishloq joylarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

1. Xalqaro tajribaga asoslangan strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish.

Italiya, Frantsiya, AQSh va Yaponiya kabi mamlakatlarning muvaffaqiyatli agroturizm modellaridan foydalangan holda O'zbekistonda strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish hamda Italiya modeli bo'yicha uzumzor va sharbat ishlab chiqarish turizm turlarini tashkil qilish kerak. Frantsiya tajribasidan gastronomik festivallar va ta'limiy dasturlarni o'zlashtirish, AQSh modeli asosida oilaviy fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va festival turizmini yo'lga qo'yish, mahalliy va xorijiy turistlar uchun qishloq xo'jaligi, gastronomik va madaniy tajribalar taklif etilishini ta'minlash mamlakatimiz uchun maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2. Mahalliy infratuzilmani rivojlantirish va texnologiyalarni joriy qilish.

Qishloq hududlarida agroturizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, turistlar uchun mehmonxonalar, ekologik dam olish maskanlari va transport xizmatlarini rivojlantirish, agroturistik xizmatlarni targ'ib qilish uchun raqamli platformalar (veb-saytlar, mobil ilovalar)ni ishga tushirish natijasida mamlakatimizda turistlarga qulay sharoitlar yaratiladi, agroturizm xizmatlari xalqaro standartlarga moslashadi.

3. Davlat ko'magi va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Davlat tomonidan agroturizmni rivojlantirish uchun subsidiya, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilish, xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorlikda agroturistik loyihalarni moliyalashtirish, mahalliy fermerlar va tadbirkorlarni xorijiy grantlar va dasturlarga jalb qilish, agroturizmni rivojlantirishda mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun maxsus iqtisodiy zonalar tashkil qilish natijasida mamlakatimizda qishloq hududlarining iqtisodiy holatini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish va agroturizmni xalqaro darajaga olib chiqish kerak bo'ladi.

Ushbu takliflar agroturizmni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirishga yordam beradi. Bu nafaqat qishloq xo'jaligi va turizm sohasidagi integratsiyani kuchaytiradi, balki mahalliy iqtisodiyot va madaniy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-147-sonli farmoni "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-martdagi PQ-60-sonli qarori "2023–2025-yillarda turizm industriyasini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-iyuldagi PF-128-sonli farmoni "Yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash to'g'risida".
4. "2020–2030-yillar uchun qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi"
5. Phillip, S., Hunter, C., & Blackstock, K. (2010). "A Typology for Defining Agritourism." *Tourism Management*, 31(6), 754-758. Elsevier.
6. Flanigan, S., Blackstock, K., & Hunter, C. (2014). "Agritourism from the Perspective of Providers and Visitors: A Typology-Based Study." *Tourism Management*, 40, 394-405. Elsevier.
7. Barbieri, C., & Mshenga, P. M. (2008). "The Role of the Agritourism Farm in Diversifying the Farm Household and Rural Communities." *Journal of Rural Studies*, 24(2), 245-258. Elsevier.
8. Tew, C., & Barbieri, C. (2012). "The Perceived Benefits of Agritourism: The Provider's Perspective." *Tourism Management*, 33(1), 215-224. Elsevier.
9. Schilling, B. J., Attavanich, W., & Jin, Y. (2014). "Does Agritourism Enhance Farm Profitability?" *Journal of Agricultural and Resource Economics*, 39(1), 69-87. Western Agricultural Economics Association.
10. Nickerson, N. P., Black, R. J., & McCool, S. F. (2001). "Agritourism: Motivations behind Farm/Ranch Business Diversification." *Journal of Travel Research*, 40(1), 19-26. SAGE Publications.
11. Gil Arroyo, C., Barbieri, C., & Rich, S. R. (2013). "Defining Agritourism: A Comparative Study of Stakeholders' Perceptions in Missouri and North Carolina." *Tourism Management*, 37, 39-47. Elsevier.
12. Hall, C. M., Roberts, L., & Mitchell, R. (2003). *New Directions in Rural Tourism*. Ashgate Publishing.
13. Busby, G., & Rendle, S. (2000). "The Transition from Tourism on Farms to Farm Tourism." *Tourism Management*, 21(6), 635-642. Elsevier.
14. Hegarty, C., & Przezborska, L. (2005). "Rural and Agri-Tourism as a Tool for Reorganizing Rural Areas in Old and New Member States: A Comparison Study of Ireland and Poland." *International Journal of Tourism Research*, 7(2), 63-77. Wiley.